FARG‘ONA VILOYATI QUVA TUMANI HOKIMINING

QARORI

2025-yil 7-oktabr | 256-11-156-Q/25 | Quva tuman hokimligi

Quva tumani markazida joylashgan ko‘chalarda fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish hamda aholiga qulaylik yaratish maqsadida yo‘l belgilari o‘rnatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 25-moddalariga, “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonunning 4-, 16-moddalariga, O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 19-yanvardagi “Yo‘l harakati to‘g‘risida”gi 900-sonli Qonunining 6-moddasiga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022- yil 12-apreldagi 172-sonli qaroriga asosan, tuman hududida yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash maqsadida, tuman ichki ishlar bo‘limining 2025-yil 17-sentabr kungi 55/34-8-1238-son hamda 55/34-8-1239-son aloqa xatlarini ko‘rib chiqib,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Quva tuman ichki ishlar bo‘limining 2025-yil 17-sentabr kungi 55/34-8-1238-son hamda 55/34-8-1239-son aloqa xatlari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quva tumani markazida joylashgan ko‘chalarda fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish hamda aholiga qulaylik yaratish maqsadida o‘rnatilishi lozim bo‘lgan yo‘l belgilari va manzili 1-ilovaga asosan tasdiqlansin hamda mazkur yo‘l belgilarini o‘rnatishga ruxsat berilsin.

3. Quva tumani Ichki ishlar bo‘limi (F.Usarov), tuman ichki ishlar bo‘limi Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmasi (F.Xamrayev) va tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi direktori (R.Xaydarov)lar hamkorlikda Quva tumani markazida joylashgan ko‘chalarda fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish hamda aholiga qulaylik yaratish maqsadida yo‘l belgilarini o‘rnatish va doimiy nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.

4. Tuman hokimligining axborot xizmati (R.O‘rinboyev) ushbu qarorni tuman hokimligining rasmiy veb saytiga hamda boshqa OAVlarda keng yoritishi tavsiy etilsin.

5. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari M.Akbarov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **X.Umarov**

Quva tumani hokimining
2025-yil 7-oktabrdagi
256-11-156-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Tuman hududida avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida o‘rnatilishi lozim bo‘lgan yo‘l belgilari va manzili
RO‘YXATI

№	Yo‘l belgisi o‘rnatilgan manzil nomi	Yo‘l belgisini nomi	Yo‘l belgisini soni
1	D-141 “Shaxrixon-Quva” avtomobil yo‘lining 29 km., D-100 “Quva shahar aylanmasi” avtomobilyo‘lining 1,2 km. Hamda Quva tumani Bo‘ston ko‘chasi ichki xo‘jalik yo‘li bilan tutashgan chorraxaga, Bo‘ston ko‘chasiga kirish qismiga	5.5 “Bir tomonlama harakat”	1
2	Bo‘ston ko‘chasidagi “Y” simon chorraha qismiga	3.1 “Kirish taqiqlanadi”	1
3	Quva tumani “G‘alaba” MFY Humo ko‘chasiga	3.27 “To‘xtash va to‘xtab turish taqiqlanadi”	1